



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 31910,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 130,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 975,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 31910,1 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi transport xizmatlari, savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim xizmatlarida kuzatilmoqda.

Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	31910,1	108,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	941,2	105,7
viloyatlar:		
Andijon	1723,9	104,5
Buxoro	1385,0	104,6
Jizzax	660,6	106,9
Qashqadaryo	1512,2	104,2
Navoiy	824,9	110,5
Namangan	1321,8	104,9
Samarqand	2150,4	106,1
Surxondaryo	1190,1	106,0
Sirdaryo	411,9	106,5
Toshkent	2379,0	106,3
Farg'ona	1971,8	104,7
Xorazm	926,4	105,0
Toshkent shahri	10153,5	112,7

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Toshkent shahri (10153,5 mlrd.so'm), Toshkent (2379,0 mlrd.so'm), Samarqand (2150,4 mlrd.so'm) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Sirdaryo (411,9 mlrd.so'm), Jizzax (660,6 mlrd.so'm), Navoiy (824,9 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.


2018 yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Toshkent shahri (31,8 %), Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,7 %), Farg'ona (6,2 %), Andijon (5,4 %) viloyatlari egallaydi.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining ortishiga ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar va savdo xizmatlari ulushining oshishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar tarkibida yuqori ulushga ega xizmat turlarini taqqoslanishi, % da




Surxondaryo viloyatida savdo xizmatlari eng katta ulushga egaligi qayd etildi. Biroq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Toshkent shahrida bu ko'rsatkich nisbatan pastligi kuzatildi.

Toshkent shahrida boshqa hududlarga nisbatan xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari yuqori ulushlarni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 975,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - 4110,1 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida kuzatildi - 472,4 ming so'm, o'sish sur'ati esa 103,9 % ni tashkil etdi. Bu maskur viloyatda aholi zich joylashganligi bilan izohlanadi.

Taqqoslash uchun, Navoiy viloyatida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 859,6 ming so'mga teng. Biroq, ushbu viloyatda aholi soni Surxondaryo viloyatining aholisiga nisbatan 2,6 marta kamdir.

2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (140,8 %), moliyaviy xizmatlar (130,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (109,3 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 4333,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi (xizmatlar umumiy hajmida 13,6 % ni tashkil etadi). O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130,3 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi, % da



Hududlar o'rtasida ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning eng katta ulushi Toshkent shahrida - 24,3 % qayd etildi. Shu bilan birga, Namangan viloyatida bu ko'rsatkich 8,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi. Yo'lovchilarni havo transporti orqali tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshishi Navro'z bayrami munosabati bilan arzonlashtirilgan narxlarda qo'shimcha qatnovlarning ko'paytirilishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar, shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - transport xizmatlari (30,7 %), savdo xizmatlari (27,3 %), moliyaviy xizmatlar (13,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %), ta'lim xizmatlari (3,5 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (3,1 %) tashkil etadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (47,6 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'lovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.


2018 yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da



Quvurlar orqali ko'rsatilgan transport xizmatlari transport xizmatlarining umumiy hajmida 17,4 % ni tashkil etadi. Shuningdek, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmining 15,7 % ni tashkil qiladi. Yuk va yo'lovchilarni havo transporti orqali tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 11,3 % ni tashkil etadi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 8,0 % ni tashkil qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.


Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Hududlar o'rtasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navoiy (120,9 %), Toshkent (120,7 %), Namangan (119,9 %), Jizzax (118,6 %) viloyatlarida kuzatildi. Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati: Navoiy viloyatida - 105,2 %, Toshkent viloyatida - 120,4 %, Namangan viloyatida - 110,3 %, Jizzax viloyatida - 109,5 % ga teng bo'lgan.

Avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida eng yuqori ulush Toshkent shahri (16,7 %), Toshkent (13,8 %), Samarqand (11,7 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (2,7 %) viloyatlarida avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng past ulushlar qayd etildi.

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Mas'ul:

Q.Berdiqulov

(71) 230-80-59